

CLINICAL PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY

Shomurodova Sevinch Bobomurod qizi

Termez University of Economics and Service, Faculty of Medicine

Student of the Department of Therapeutic Work

E-mail: shomurodova.16@gmail.com

Eshtokhtarova Sevinch Zokirovna

Termez University of Economics and Service, Faculty of Medicine

Student of the Department of Therapeutic Work

E-mail: sevincheshtoxtarovaa@gmail.com

Annotation: This article is aimed at analyzing the interrelationships, differences, and integrative approaches in the fields of clinical psychology and psychiatry. The introduction discusses the historical development of clinical psychology and psychiatry, their importance in the modern healthcare system, and their role in the diagnosis and treatment of diseases. The methods section compares and analyzes the diagnostic tools (for example, DSM-5, ICD-11), psychotherapy methods, and pharmacological approaches used by representatives of both fields. The results showed that clinical psychologists focus primarily on helping patients through psychotherapy, cognitive-behavioral therapy, and psychodiagnostics, while psychiatrists focus on understanding diseases from a neurobiological perspective and treating them with medications. The possibilities of improving patient well-being through multidisciplinary teamwork were also highlighted.

Keywords: clinical psychology, psychiatry, mental health, psychotherapy, pharmacotherapy, DSM-5, multidisciplinary approach, diagnostics, cognitive-behavioral therapy.

КЛИНИЧЕСКАЯ ПСИХОЛОГИЯ И ПСИХИАТРИЯ

Термезский университет экономики и сервиса, Медицинский факультет

Студентка кафедры терапевтической работы

Шомуродова Севинч Бобомурод кизи

E-mail: shomurodova.16@gmail.com

Термезский университет экономики и сервиса, Медицинский факультет

Студентка кафедры терапевтической работы

Эштохтарова Севинч Зокировна
E-mail: sevincheshtoxtarovaa@gmail.com

Примечание: Данная статья посвящена анализу взаимосвязей, различий и интегративных подходов в области клинической психологии и психиатрии. Во введении рассматривается историческое развитие клинической психологии и психиатрии, их значение в современной системе здравоохранения, а также их роль в диагностике и лечении заболеваний. В разделе «Методы» сравниваются и анализируются диагностические инструменты (например, DSM-5, ICD-11), методы психотерапии и фармакологические подходы, используемые представителями обеих областей. Результаты показали, что клинические психологи в первую очередь сосредоточены на оказании помощи пациентам посредством психотерапии, когнитивно-поведенческой терапии и психодиагностики, в то время как психиатры сосредоточены на понимании заболеваний с нейробиологической точки зрения и их лечении с помощью медикаментов. Также были подчеркнуты возможности улучшения благополучия пациентов посредством междисциплинарной командной работы.

Ключевые слова: клиническая психология, психиатрия, психическое здоровье, психотерапия, фармакотерапия, DSM-5, междисциплинарный подход, диагностика, когнитивно-поведенческая терапия.

KLINIK PSIXOLOGIYA VA PSIXIATRIYA

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti

Davolash ishi ta'lim yo'nalishi talabasi

Shomurodova Sevinch Bobomurod qizi

E-mail: shomurodova.16@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti

Davolash ishi ta'lim yo'nalishi talabasi

Eshtoxtarova Sevinch Zokirovna

E-mail: sevincheshtoxtarovaa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola klinik psixologiya va psixiatriya sohasidagi o'zaro aloqadorlik, farqlar hamda integratsiyaviy yondashuvlarni tahlil qilishga qaratilgan. Kirish qismida klinik psixologiya va psixiatriyaning tarixiy rivojlanishi, ularning

zamonaviy sog'liqni saqlash tizimidagi ahamiyati hamda kasalliklarni tashxislash va davolashdagi o'rni muhokama qilinadi. Usullar bo'limida ikkala soha vakillari tomonidan qo'llaniladigan diagnostik vositalar (masalan, DSM-5, ICD-11), psixoterapiya metodlari hamda farmakologik yondashuvlar solishtirib tahlil qilindi. Natijalar qismida klinik psixologlar asosan psixoterapiya, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi va psixodiagnostika orqali bemorlarga yordam ko'rsatishga e'tibor qaratishsa, psixiatrlar esa neyrobiologik nuqtai nazardan kasalliklarni tushunish va dorilar bilan davolashga yo'naltirilganligi ko'rsatildi. Shuningdek, multidistsiplinar jamoaviy ishlash orqali bemorlarning sog'lomligini yaxshilash imkoniyatlari ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: klinik psixologiya, psixiatriya, mental sog'liq, psixoterapiya, farmakoterapiya, DSM-5, multidistsiplinar yondashuv, diagnostika, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi.

KIRISH: Ruhiiy salomatlik inson umumiy salomatligining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda psixik buzilishlar, stress, depressiya, tashvish, shuningdek, boshqa ruhiy kasalliklarning ko'payishi klinik psixologiya va psixiatriyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining katta qismi hayoti davomida kamida bir marta ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bu esa ushbu sohalarda samarali diagnostika, davolash va rehabilitatsiya tizimlarini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Klinik psixologiya va psixiatriya umumiy maqsadga ega bo'lsa-da, ya'ni insonning ruhiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa-da, ular turli yondashuvlarga asoslanadi. Klinik psixologiya asosan insonning xulq-atvori, tafakkuri, hissiy holati va shaxsiy xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganib, psixoterapevtik usullar orqali yordam ko'rsatadi. Psixiatriya esa tibbiy fan sifatida ruhiy kasalliklarning biologik, neyrokimyoviy va genetik asoslarini o'rganib, ularni farmakologik davolashga yo'naltirilgan.

Tarixiy jihatdan klinik psixologiya va psixiatriya alohida yo'nalishlar sifatida rivojlangan. Psixiatriya dastlab faqat tibbiy modelga asoslangan bo'lsa, klinik psixologiya psixoanaliz, bixeviorizm va kognitiv psixologiya ta'sirida shakllangan. Biroq zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida ushbu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'plab hollarda birgalikda ishlaydi.

Bugungi kunda samarali ruhiy salomatlik yordami ko'p tarmoqli (multidistsiplinar) yondashuvni talab qiladi. Bunda klinik psixologlar, psixiatrlar,

ijtimoiy xodimlar va boshqa mutaxassislar bir jamoa bo'lib ishlaydi. Bunday hamkorlik bemorlarni har tomonlama baholash, individual davolash rejasini tuzish va uzoq muddatli rehabilitatsiyani ta'minlash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi klinik psixologiya va psixiatriya o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish, ularning diagnostika va davolashdagi rolini aniqlash hamda integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyatini asoslashdan iborat.

USULLAR Ushbu tadqiqotda klinik psixologiya va psixiatriya sohalari o'rtasidagi o'xshashliklar, farqlar va ularning birgalikda ishlash imkoniyatlari chuqurroq o'rganildi. Tadqiqot amaliy tajriba yoki laboratoriya tekshiruvi emas, balki nazariy-analitik tahlil asosida olib borildi. Ya'ni biz yangi eksperiment o'tkazmadik, balki mavjud ilmiy manbalar, kitoblar, maqolalar va xalqaro qo'llanmalarni o'rganib, ularni solishtirib chiqdik.

Ma'lumotlarni yig'ish. Tadqiqot uchun quyidagi asosiy manbalardan foydalanildi:

- DSM-5 (Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders) — ruhiy kasalliklarni tashxislash bo'yicha asosiy qo'llanma.
- ICD-11 (International Classification of Diseases) — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan kasalliklarning xalqaro tasnifi.
- Klinik psixologiya va psixiatriya bo'yicha ilmiy maqolalar va darsliklar.
- Ruhiy salomatlikka oid xalqaro tashkilotlar hisobotlari.

Bu manbalar orqali biz ikkala sohaning nazariy asoslari, amaliy ishlash usullari va bemorlar bilan ishlash yondashuvlarini chuqurroq tushunishga harakat qildik.

Qiyosiy tahlil mezonlari. Klinik psixologiya va psixiatriyani solishtirish uchun biz quyidagi asosiy mezonlarni belgilab oldik:

Diagnostika usullari Biz klinik psixologlar va psixiatrlar bemorning ruhiy holatini qanday baholashini o'rgandik. Masalan:

- Psixologlar ko'proq psixologik testlar, so'rovnomalar va suhbatlardan foydalanadi.
- Psixiatrlar esa DSM-5 va ICD-11 asosida klinik tashxis qo'yadi, shuningdek, tibbiy ko'riklar o'tkazishi mumkin.

Davolash yondashuvlari. Biz ikkala soha vakillari bemorni qanday davolashini solishtirdik:

- Klinik psixologlar asosan psixoterapiya, ayniqsa kognitiv-xulq-atvor terapiyasidan foydalanadi.

- Psixiatrlar esa ko‘proq dorilar (antidepressantlar, antipsixotiklar, trankvilizatorlar va boshqalar) bilan davolashga e‘tibor qaratadi.

Bemor bilan ishlash uslubi. Biz mutaxassislarning bemor bilan qanday muloqot qilishini ham tahlil qildik:

- Psixologlar bemor bilan ko‘proq suhbat olib boradi, uning fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini tushunishga harakat qiladi.

- Psixiatrlar esa bemorning alomatlarini tibbiy nuqtai nazardan baholaydi va kerak bo‘lsa, davolash rejasi tuzadi.

Fanlararo hamkorlik Shuningdek, biz klinik psixologlar va psixiatrlar bir-biri bilan qanday ishlashini o‘rgandik. Ko‘plab holatlarda ular birgalikda jamoa bo‘lib ishlaydi, masalan:

- Og‘ir depressiya
- Shizofreniya
- Travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD)
- Bipolyar buzilish kabi kasalliklarda.

Ma‘lumotlarni tahlil qilish

Yig‘ilgan ma‘lumotlar umumlashtirildi, solishtirildi va tahlil qilindi. Shu asosda biz quyidagi savollarga javob topishga harakat qildik:

- Klinik psixologiya va psixiatriya qaysi jihatdan o‘xshash?
- Ularning asosiy farqlari nimalardan iborat?
- Ular qanday qilib birgalikda samarali ishlashi mumkin?

Natijada biz ikkala sohaning kuchli tomonlarini aniqlab, ularning integratsiyasi bemorlar uchun qanday foyda keltirishini ko‘rsatishga harakat qildik.

NATIJARLAR Tadqiqot davomida o‘rganilgan adabiyotlar va qiyosiy tahlillar asosida klinik psixologiya va psixiatriya o‘rtasidagi o‘xshashliklar, farqlar hamda ularning birgalikdagi faoliyati bo‘yicha quyidagi natijalar aniqlandi.

Diagnostika bo‘yicha natijalar Tahlil shuni ko‘rsatdiki, klinik psixologlar va psixiatrlar bemorni baholashda turli yondashuvlardan foydalanadi, lekin ular ko‘pincha bir-birini to‘ldiradi.

Klinik psixologlar asosan psixologik testlar, so‘rovnomalar, kuzatish va chuqur suhbatlar orqali bemorning ruhiy holatini baholaydi. Ular bemorning fikrlashi, hissiyotlari, xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga ko‘proq e‘tibor qaratadi.

- Psixiatrlar esa DSM-5 va ICD-11 asosida klinik tashxis qo‘yadi, bemorning alomatlarini tibbiy nuqtai nazardan baholaydi va zarur bo‘lsa, laboratoriya yoki nevrologik tekshiruvlarni ham tavsiya qilishi mumkin.

Bu shuni anglatadiki, psixologik baholash va tibbiy diagnostika birgalikda olib borilganda bemorning holati aniqroq tushuniladi.

Davolash bo'yicha natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, klinik psixologiya va psixiatriyada davolash usullari turlicha bo'lsa-da, ular bir-birini samarali to'ldirishi mumkin. Klinik psixologlar ko'proq psixoterapiyadan foydalanadi. Ayniqsa, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (KXT) tashvish, depressiya, stress va boshqa emotsional muammolarda keng qo'llaniladi. Bu usul bemorning salbiy fikrlash tarzini o'zgartirishga va sog'lom xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi.

- Psixiatrlar esa asosan farmakoterapiya, ya'ni dorilar bilan davolashga e'tibor qaratadi. Masalan, og'ir depressiya, shizofreniya yoki bipolyar buzilish holatlarida dorilar muhim rol o'ynaydi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ko'plab hollarda eng yaxshi natijaga erishish uchun psixoterapiya va farmakoterapiyani birgalikda qo'llash samarali hisoblanadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, klinik psixologlar va psixiatrlarning birgalikdagi ishlashi bemorlar uchun katta foyda keltiradi. Multidistsiplinar jamoada quyidagilar amalga oshiriladi:

- Bemorning ruhiy holatini har tomonlama baholash
- Individual davolash rejasini ishlab chiqish
- Davolash jarayonini muntazam kuzatib borish
- Zarur bo'lsa, davolashni moslashtirish

Ayniqsa, quyidagi holatlarda jamoaviy yondashuv juda muhim ekanligi aniqlandi:

- Og'ir depressiya
- Shizofreniya
- Travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD)
- Bipolyar buzilish
- Kuchli tashvish buzilishlari

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari klinik psixologiya va psixiatriya o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa-da, bu farqlar ularni bir-biridan ajratib qo'ymaydi, aksincha, bir-birini to'ldiruvchi sohalar ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu bo'limda olingan natijalar tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi.

Klinik psixologiya va psixiatriya o'rtasidagi munosabat. Muhokama natijalariga ko'ra, klinik psixologiya va psixiatriya turli yondashuvlarga asoslangan bo'lsa-da, umumiy maqsadga ega, ya'ni insonning ruhiy salomatligini yaxshilash.

Klinik psixologiya bemorning ichki kechinmalari, fikrlash tarzi, xulq-atvori va emotsional holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa bemorning muammosini faqat tashqi alomatlar orqali emas, balki uning shaxsiy tajribasi orqali ham baholash imkonini beradi. Psixiatriya esa ruhiy kasalliklarning biologik va neyrokimyoviy asoslarini o'rganib, dorilar orqali davolashni ta'minlaydi. Bu ayniqsa og'ir ruhiy buzilishlarda muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli, faqat psixoterapiya yoki faqat farmakoterapiya bilan cheklanib qolish har doim ham yetarli bo'lmaydi. Eng samarali yondashuv ko'pincha har ikkala usulni birgalikda qo'llashdir.

Integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyati. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, multidistsiplinar yondashuv, ya'ni klinik psixolog, psixiatr va boshqa mutaxassislarning birgalikda ishlashi bemorlar uchun eng yaxshi natijalarni beradi.

Bunday jamoaviy ish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Bemorning holatini har tomonlama baholash
- Individual davolash rejasini tuzish
- Davolash jarayonini muntazam nazorat qilish
- Zarurat bo'lsa, davolashni o'zgartirish yoki moslashtirish

Masalan, og'ir depressiya bilan kasallangan bemorda psixiatr dorilar yozib beradi, klinik psixolog esa psixoterapiya orqali bemorning salbiy fikrlash tarzini o'zgartirishga yordam beradi. Natijada bemorning tiklanish jarayoni tezlashadi.

Zamonaviy tendensiyalar. Hozirgi kunda klinik psixologiya va psixiatriya o'rtasidagi chegaralar asta-sekin yumshab bormoqda. Bir tomondan, psixiatrlar o'z amaliyotida psixoterapiya elementlarini ko'proq qo'llay boshlashmoqda. Ikkinchi tomondan, klinik psixologlar bemorning biologik omillarini ham hisobga olish zarurligini tobora ko'proq tushunib yetmoqda. Bu esa kelajakda ruhiy salomatlik tizimida yanada integratsiyalashgan model shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotning cheklovlari. Mazkur tadqiqot nazariy tahlil asosida olib borilganligi sababli, unda bevosita bemorlar bilan amaliy tajribalar o'tkazilmagan. Kelajakda klinik tadqiqotlar orqali ushbu xulosalarni yanada mustahkamlash mumkin.

XULOSA. Mazkur tadqiqot klinik psixologiya va psixiatriya sohalarining o'zaro bog'liqligi, farqlari hamda birgalikdagi faoliyatining ahamiyatini tahlil qilishga qaratildi. O'rganilgan adabiyotlar va qiyosiy tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, klinik psixologiya va psixiatriya turli yondashuvlarga asoslangan bo'lsa-da, umumiy maqsadga ega ekanligi aniqlandi. Har ikkala soha ham insonning ruhiy salomatligini saqlash, ruhiy buzilishlarni aniqlash va davolashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, klinik psixologlar asosan psixoterapiya, psixodiagnostika va maslahat berish orqali bemorlarga yordam ko'rsatishi, psixiatrlar esa ko'proq farmakologik davolashga e'tibor qaratishi tasdiqlandi. Shu bilan birga, ko'plab hollarda eng samarali natijaga erishish uchun ushbu ikki yondashuvni birgalikda qo'llash zarurligi ko'rsatildi.

Uchinchidan, multidistsiplinar jamoaviy yondashuv ruhiy salomatlikni yaxshilashda muhim rol o'ynashi aniqlandi. Klinik psixolog, psixiatr va boshqa mutaxassislarning hamkorligi bemorni har tomonlama baholash, individual davolash rejasini ishlab chiqish va davolash jarayonini samarali olib borish imkonini beradi.

To'rtinchidan, zamonaviy tendensiyalar klinik psixologiya va psixiatriya o'rtasidagi chegaralar asta-sekin yumshab borayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa kelajakda integratsiyalashgan, ya'ni birgalikda ishlashga asoslangan ruhiy salomatlik tizimini rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. Kelajakda ushbu yo'nalishda amaliy klinik tadqiqotlar olib borish, O'zbekiston sharoitida klinik psixologiya va psixiatriya o'rtasidagi hamkorlik modelini ishlab chiqish hamda yagona diagnostik va davolash protokollarini yaratish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot klinik psixologiya va psixiatriyaning bir-birini to'ldiruvchi sohalar ekanligini ko'rsatib, ularning integratsiyasi bemorlarning ruhiy salomatligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). Washington, DC, 2013.
2. World Health Organization. International Classification of Diseases (ICD-11). Geneva, 2019.
3. Beck, A. T. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. New York, 1976.
4. Kaplan, H. I., & Sadock, B. J. Kaplan & Sadock's Comprehensive Textbook of Psychiatry. 10th Edition.
5. World Health Organization. World Mental Health Report. 2022.
6. Corey, G. Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy. Belmont, CA: Brooks/Cole, 2017.
7. Kazdin, A. E. Evidence-Based Psychotherapy: Where Practice and Research Meet. Washington, DC: APA, 2008.

8. Andreasen, N. C. *The Broken Brain: The Biological Revolution in Psychiatry*. Harper & Row, 1984.
9. Morrison, J. *DSM-5 Made Easy: The Clinician's Guide to Diagnosis*. New York: Guilford Press, 2014.
10. Shultz, D., & Shultz, S. *History of Modern Psychology*. Cengage Learning, 2016.
11. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. *Ruhiy salomatlikni rivojlantirish milliy strategiyasi*. Toshkent, 2020.
12. Karimova V.M. *Psixologiya asoslari*. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
13. G'oziyev E.G'. *Umumiy psixologiya*. Toshkent: Universitet, 2010.
14. Mirziyoev Sh.M. *Inson kapitalini rivojlantirish va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish*. Toshkent, 2021.
15. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. *Psixiatriya asoslari. O'quv qo'llanma*, Toshkent, 2018.
16. Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik markazi. *Klinik psixologiya bo'yicha uslubiy qo'llanma*. Toshkent, 2019.